

Yoshlar

Yoshlar bandligini ta'minlash  
maqsadida ajratilgan kreditlar:

"Mikrokreditbank" dan  
182 311 mln. so'm

"Agrobank" dan  
399 079,9 mln. so'm

"Xalq banki" dan  
189 767,2 mln. so'm

# YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK  
BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,  
adabiy-badiiy  
gazeta

# 29 (16482)  
2022-yil, 14-may  
shanba

 /yoshlarovozi

 /yoshlarovozi

 /yoshlarovozi.uz

Yoshlar siyosati  
4-5-betlar

Respublika komissiyasi  
Farg'onada

Ta'lim  
6-bet

Kredit-modul tizimi: quaylik,  
kamchilik va ustun jihatlari

Nigoh  
7-bet

So'z erkinligi  
nima?



“BO‘ZATOV FEST” O‘Z KULMINATSIYASIGA YETDI  
**SUPER FINAL - ERTAGA**

batafsil  
2-3-betlarda

# “BO‘ZATOV FEST” O‘Z KULMINATSIYASIGA YETDI SUPER FINAL – ERTAGA

**J**onlijro, xushkayfiyat, hayajon, mag’lubiyat alami va sevinch sahnasiiga aylangan Bo‘zatov bugun baxshichilik, an'anaviy ijo, opera, estrada yo‘nalishlarida o‘z iste’dodini namoyish qilayotgan yoshlar bilan limmo-lim. “Bo‘zatov FEST”: “Yosholar ovozi” tanlovi chin ma’noda yangi ovozlarni kashf etishga xizmat qilmoqda. Taniqli shoirlar va yosh ijodkorlar uchrashuv, qoraqlapqoq milliy taomlari, hunarmandchilik namunalarini va liboslari ko‘rgazmasi, mushakbozlik shousi festivaliga yanada ko‘tarinki ruh bag ishlayotir.



Baxshichilik, an'anaviy ijo, opera yo‘nalishi bo‘yicha tanlovlari o‘z niyoyasiga yetdi. Ayniqsa, noyob nomoddiy madaniy merozimiz, yer yuzida kamdan-kam xalqlarda mavjud bo‘lib, necha ming yillar osha bizgacha bezaval saqlanib, yetib kelgan baxshichilik yo‘nalishidagi bellashuv qizg‘in kechdi. Ilgari baxshi deganda katta yoshli, doston aytadigan kishilar ko‘z oldimizga kelardi. Bu yilgi tanlovda esa yosh-yosh yigitlar, hattoki qizlar ham do‘mbira chertib, doston va termalarni baralla kuylashmoqda.



“Yosholar ovozi” bu yil ikkinchi marotaba o’tkizilmoqda. 2021-yilda 10 ming, bu yil esa 238 ming yoshning ishtiroki tanlovga qiziqishning keskin oshganidan dalolat. O’tgan yili tanlov hududiy kasting bosqichidan boshlangan va bu ko‘plab iste’dod egalarini kashf etish imkonini berma-gandi. Bu yil quyisi bo‘g‘indan har bir yoshning ovozini eshitish maqsad qilingan.

O’tgan yili tanlov 2 yosh toifasida (6-15 yosh, 16-30 yosh), 3 ta yo‘nalishda (an'anaviy ijo va baxshichilik, opera hamda estrada) o’tkazilgan. O‘z navbatida ishtirokchilar ortasida yosh mutanosibligini keltirib chiqqargani bois bu yil tanlovda 10 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar 3 yosh toifasida (10-15, 16-22 va 23-30 yosh) baxshichilik, an'anaviy ijo (maqom, katta ashula, suvoraxonlik), opera hamda estrada kabi 4 ta yo‘nalishning birida ishtirok etishlari belgilandi.

Bundan tashqari, o’tgan yili 1-oringa 50 million, 2-oringa 25 million hamda 3-oringa 15 million so‘m miqdordagi pul mukofoti berilgan. Shuningdek, respublika bosqichiga chiqqan qolgan ishtirokchilarini rag‘battantrish maqsadida 5 million so‘mdan ajratilgan edi. Bu yil esa jamg‘arma miqdori o‘zgar gan bo‘lib, har bir yo‘nalish bo‘yicha 1-oringa egasi 50 million, 2- va 3-oringa sovrindorlari 30 million hamda 20 million so‘m pul mukofotini qo‘lga kiritishadi. Qolgan respublika bosqichiga qatnashchilari esa 10 million so‘m bilan taqdirlanadi.

Nizomga ko‘ra, tanlov ikki bosqichda – final va super final shaklida bo‘lib o’tadi. Finalda eng yuqori balni qo‘lga kiritgan 4 ishtirokchi super finalga yo‘l oladi. Bu bosqichda hakamlar tomonidan berilgan qo‘shimcha shart asosida 3 nafar g‘olib aniqlanadi.

G‘oliblarning nomlari esa Bo‘zatov tumani-da bo‘lib o‘tadigan yakuniy gala-konserta e’lon qilinadi.



Munojot YO‘LCHIYEVA,  
O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq artisti, hakamlar hay’ati a’zosi:

– Asrlar osha o‘zbek san’ati xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Buning isbotini endi bo‘y cho‘zib kelayotgan iqtidorli bolalarimizda ham ko‘rishimiz mumkin. Prezidentimizning tashabbuslari bilan an'anaviy tarzda o’tkazilib kelinayotgan “Yosholar ovozi” tanlovi yosh iqtidorlarning san’ati maydoniga kirib kelishiga zamin bo‘ladi, kelajakda shu yo‘nalishda ijod qilishi uchun katta imkoniyat eshidigini ochib, yoshlarimizning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Mezbon Qoraqlapog‘iston vakillari juda kuchli tayyorgarlik ko‘rishibdi. Ular baxshichilik va opera yo‘nalishlarida oliy o‘rinlar uchun kurashga kirishgan. Farg‘ona, Jizzax, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyati yoshlari ham yuqori tayyorgarlik bilan kelishgan.

Biz hakamlar ishtirokchilarni 10 ballik tizimda baholab, yoshlarning ijo mahorati, uslubi, kiyinish madaniyati, ovozi kabilarga ahamiyat qaratayapmiz.



Indira XOLDOROVA,  
Yosholar ishlari agentligi  
Besh tashabbus loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i:

– Ishtirokchilar garchi hayajonda bo‘lish-sa-da, ularning ko‘zlaridan o‘ziga bo‘lgan ishonchni ko‘rish mumkin. Yoshlarimizning fikri bilan qiziqqanimizda ular bu tanlovdan niyoyatda mammun ekanliklarini, hech kim bu yerdan quruq ketmasligini ta‘kidlashmoqda. Haqiqat ham, tanlov ishtirokchilar hatto o‘rin ololmagan taqdirda ham ularga 10 million so‘m miqdorida pul mukofoti taqdim etiladi. Eng quvonarsi, yoshlarimiz san’atimizning ulug‘ darg‘alari bo‘lmish Munojot Yo‘lchiyeva, Islomjon Jalilov, Shirin Mamatovalarning qimmatli taklif hamda maslahatlariga ega bo‘lmoqda.



Malika AKMALJONOVA,  
tanlovnining 16-22 yosh toifasida opera yo‘nalishi ishtirokchisi (Samarqand viloyati):

– Tanlov tashkilotchilari tomonidan festival doirasida diqqatga sazovor joylarga uyushtirilgan sayohat ham bizda katta taassurot qoldirdi. Borgan joylarimiz orasida “Sovetskiy” muzeysi haqida ko‘p bor eshitgan, o‘qigan edim, amma ko‘rganlarim eshitganlidan ham o‘zga bir manzara bo‘ldi. Eksponatlar odamni hayratlantiradi. Yurtimiz zaminida shunday madaniyat va san’at markazi borligi kishida faxr uyg‘atadi. Men bu tanlovda birinchi bor ishtirok etyapman. Ijodkor insonlar bilan tanishdim, davra suhbatlari-da bo‘ldim. Har doim sahnaga chiqishim oldidan hayajon bo‘lardi. Bu galgi chiqishim oldidan hayajon ikki karra ko‘proq bo‘ldi. Ammo ustozlarimning menga bergan maslahatlari, yo‘l yo‘riqlari bilan ushuu hayajonni yenga oldim deb o‘layman. Ovoz va nafasni to‘g‘rilab, chiroylli talqinda kuylashga harakat qildim, bu hakamlar hay’atiga ma’qul keldi va super finalg‘a chiqishga muvaffaq bo‘ldim.

66

1-O‘RIN EGASI **50 MILLION**, 2- VA  
3-O‘RIN SOVRINDORLARI **30 MILLION** HAMDA **20 MILLION** SO‘M PUL MUKOFOTINI QO‘LGA KIRITISHADI.

“



**Sayyora SULTONOVA,**  
23-30 yosh toifasida baxshichilik yo'nalishi  
ishtirokchisi (Namangan viloyati):

- Ko'pchilik mendan qiz bola bo'lishimga qaramay, nega aynan baxshichilik yo'nalishini tanganimni so'rashdi. Uch yoshimdan Shomurod baxshi Tog'ayevning "Biyigul" termasini hirgayi qilib yurardim. Keyinchalik bu soha bilan jiddiy shug'ullanishimga onam sababchi bo'lganlar. Bilamizki, "Yoshlar ovoz" bu yil ikkinchi marotaba o'tkazilyapti. Bu yilgi festival ajoyib tarzda tashkillashtirilgan. O'tgan yili tanlov to'g'ridan-to'g'ri viloyat bosqichidan boshlangani uchun chekka hududlardagi yoshlar qatnasha olmagandi. Bu yil esa tanlov eng quyi, ya'ni mahalla bosqichidan boshlandi. O'tgan yilgiga nisbatan bu yil talabgorlar soni sezilarli darajada oshgan. Bu esa eng kichik hududlardan boshlab istedodlarni kashf etishga yordam beradi. Ushbu festivaldan oлган taassurotlarim juda katta, bu ishtirok menga ko'п tajribalar berdi.



**Shahlo ABDUSAIDOVA,**  
"Yoshlar ovozi" respublika tanlovi Media  
shtabi mas'uli:

- O'tgan yili tanlov Nukus shahridagi uchta obyektda yo'nalishlar kesimida bo'lib o'tgan bo'sa, bu yil barcha ishtirokchilar pavilondagagi sahnaga ko'tarilishmoqda. Har kuni bittadan yo'nalishda bahslar bo'lib o'tmoqda. Tanlov televizion formatda tasvirga olinyapti. Hakamilar sahnaga ko'tarilgan har bir ishtirokchi bilan ijrosidan so'ng suhabat qilib, kerakli joylarda ularغا tavsija berishmoqda. Albatta, ustozlarning maslahatlari, tavsiyalari ularning kelgusi ijod faoliyatida asqotadi.

Tanloving mahalla bosqichidan boshlab ijodi yuruhimiz bilan televideniye, saytlar, gazzetalar orqali yoritishni boshladik. Bu jarayonlar tanlovning keyingi bosqichlarda sektor, tuman (shahar) hamda hududi bosqichlarda ham davom etdi. Voqealar rivoji to'g'ridan-to'g'ri jonli efirlar, ko'satuvalr orqali uzatilib, yurtdoshlarning xabarlarini bormoqda. Bo'zatov iqtidarlarni kashf etishda davom etaveradi. Biz esa yangi-yangi ovoz egalarini yoritishdan char-chamaymiz.

**BU YIL TANLOV ENG QUIYI, YA'NI MAHALLA BOSQICHIDAN BOSHLANDI. O'TGAN YILGIGA NISBATAN BU YIL TALABGORLAR SONI SEZILARLI DARAJADA OSHGAN.**



**Firdavs SUYUNOV,**  
16-22 yosh toifasida baxshichilik yo'nalishi  
ishtirokchisi (Samarqand viloyati):

- Men Samarqand viloyati nomidan qatnashdim, boshqa viloyatlardan kelgan raqiblarimning ham imkoniyat darajasi keng. Ayniqsa, baxshichilik yo'nalishida Qashqadaryo va Surxondaryo yoshlar ustunlik qildi. Chunki bu hududlarda baxshichilik katta tarixga ega. Shunday bo'sa-da, boshqa hududdan kelgan qatnashchilar ham bor imkoniyatlarini ko'satsatidi. Men "Alpomish" dostonidan Alpomish onasining hasratlari bayon qilingan qismini ijro etdim. Hakamilar tomonidan yaxshi fikrlar, maslahatlari berildi. Ijroyim ularga yoqdi, hozircha natijalarini kutyapmiz.



**WIKI STIPENDIYA**



**"WIKI-STIPENDIYA"**  
MARAFONI E'LON QILINDI

Wikipedia — bugungi kunda dunyodagi eng yirik ma'lumotlar bazasi. Ochiq internet ensiklopediyasidagi maqolalarning 63 foizi ingiliz, 6,9 foizi rus, 4 foizi turk va boshqa tillarda kiritilgan. Afuski, o'zbek tilidagi maqolalar 0,1 foizidan ham kam ko'satkichni tashkil qiladi.

Shu sabab Yoshlar ishlari agentligi hamkor tashkilotlar bilan birgalikda "Wiki-stipendiya" marafonini e'lon qiladi. Bundan asosiy maqsad internet tarmog'ida o'zbek tilidagi foydalni ma'lumotlarni ko'paytirishdan iborat.

G'oliblar: 1-o'rin 50 million so'm, 2-o'rin 40 million so'm, 3-o'rin 30 million so'm pul mukofotlari bilan taqdirlanadi. Bundan tashqari, eng faol beshtalikning har biriga 20 million so'm, eng faol o'ntalikning har biriga esa 10 million so'mlik bir martalik stipendiya beriladi.

Marafon shu yilning 20-mayidan 20-dekabrigacha o'tkaziladi. Marafonda ishtirok etish uchun @Wikistipendiya\_bot telegram boti orqali ro'yxatdan o'tish lozim.

Lobar QODIROVA

# RESPUBLIKA KOMISSIYASI FARG'ONADA

Avallari u yer-bu yerdan kunlik ish topib, nasibam shu ekan, deb yurgan yoshlar mahalladagi yoshlar yetakchisi uyma-uy kirib, xatlovdan o'tkazgach, tayin ish o'rniiga ega bo'limoqda. Mahalladagi ishsiz yoshlarga bir nechta ish taklif qilinib, qiziqishlari bo'yicha pazandachilik, dehqonchilik, bog'dorchilik, tikuvchilik, hunarmandchilik kabi sohalarga yo'naltirilmoqda.

**SH**unday yoshlar dan biri Qo'shtepa tumanidagi "Yo'ldoshobod" mahallasidan Mahmudjon Jamolov. Unga uch oy oldin mahalla yoshlar yetakchisi subsidiya asosida inkubator olib bergandi. Mahmudjon shuning ortidan 2,5 million so'm sof daromad oldi.

Bunday yoshlar respublikada minglab topiladi. Ajratilayotgan ko'maklar haqiqiy muhtojlarga yetib borishida esa yoshlar yetakchisidan katta mas'uliyat va vijdoran yondashuv talab qilinadi.

Bugun viloyatlarda haqiqiy ahvol qanday? Yoshlar yetakchilar faoliyatida qanday muammo laga duch kelmoqda? Shu kabi savollarga javob olish maqsadida Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi a'zolari Farg'onaya viloyatida bo'lib turibdi.

O'tgan vaqt davomida viloyatda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 15 ming 376 nafar ijtimoiy himoya ga muhtoj yoshga 9,7 milliard so'm ajratilgan. Ishsiz yoshlarga dehqonchilik qilishi uchun 1 get targacha yer berish amaliyoti yo'lg'a qo'yilib, yil boshidan 11 ming 630 nafar yoshga 1 ming 503 get tar yer ajratilgan.



Akmal ALIMOV,  
Respublika ishchi guruh a'zosi,  
Yoshlar ishlari agentligi  
boshqarma boshlig'i:

## YOSHLAR YETAKCHILARINING FAOLIYATI MUVOFIQLASHTIRILMOQDA

### "BUNDAY MUNOSABATNI KUTMAGANDIM"

Bilib-bilmay jinoyat yo'liga kirib qolgan va qonundi belgilangan tartibda jazoni o'tab qaytgan o'g'il-qizlar bilan ishlash, ularga keyingi hayotini izga tushirishga ko'maklashish, jamiyatda munosib o'rnni topishga yordam berish yetakchilarning yana bir muhim vazifasidir.



Ulug'bek QOSIMOV,  
Qo'shtepa tumanidagi  
"Qorajyda"  
mahallasidan:

### MIGRANTLAR HAM QAYTIB KELDI

Ayni kunlarda viloyatning Oltiariq tumani qir-adirliklariда yangi ekin maydonlari o'zlashtirilib, tumandagi "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari", "Temir daftari"ga ro'yxatga olingan aholiga bo'lib berilmoqda. Ishchi guruh a'zolari kun tartibi doirasida mazkur hududga kelib, yer ajratilgan yoshlar bilan suhbatlashdi.



Faxriddin MAMADALIYEV,  
Oltiariq tumanidagi  
"Eskiara" mahallasi  
yoshlar yetakchisi:

— Viloyat safarida bo'lib turganmizda, eng avvalo, mahalladagi beshlikning (mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektor) hamkorligini yo'lga qo'yishga ahamiyat berdi. Hududdagi yoshlar yetakchilar bilan suhbatlashib, ular yuritayotgan hujjatlar ni ko'zdan kechirdik, kamchiliklarni tahsil qildik. Yoshlar yetakchilar va mahalla yoshlarining fikr hamda takliflari tinglandi, ishga joylashgan yoshlar bilan suhbatlar tashkilashtirdik. Joriy yilning 4 oy davomida viloyatda 1 445 nafar yosh tonmonidan 1 466 ta jinoyat sodir qilingan bo'lib, umumiy jinoyatlarining (4 828 ta) har uchinchisida yoshlar ishtirot etgan. Shu bois mahallalar da yoshlar jinoyatchiligining oldini olish bo'yicha "Farg'ona tajribasi"ni yaratish komissiya a'zolarining eng asosiy maqsadi etib belgilab olindi. Jinoyatçılık oshgan Margilon shahri va Yozyovon, Oltiariq tumanlaridagi mahallalarda yoshlar jinoyatçılıgi profilaktikasi borasida tanqidiy muhokamalar tashkil ettili.

— O'n olti oy qilmishimdan xusloa chiqarishim uchun yetarli fursat bo'ldi. Qilgan ishimanidan pushaymonman. Endi mahallaga borsam, menga qanday munosabatda bo'lismadi, deb ko'p o'yillardim. Chiqishim bilan mahalla yetakchisi yonimga kelib, qaysi sohanai uddalay olishimni so'raganida hayron bo'ldim. Men bunday munosabatni kutmag'an edim. Ko'p o'tmay mahalladagi g'isht ishlab chiqarish sexiga ishga joylashdim. Hozirda bir million dan oshiq maosh olyapman.

— Ishchi guruh a'zolari mahallamizga kelib, yangi o'zlashtirilib, mahallamiz yoshlariga 20 sotixdan bo'lib berilgan 1000 getkar yerni ham ko'zdan kechirdi. Bu yerlami sug'orish uchun katta maydonda suv havzalari yaratildi. Unumдорлиги juda yuqori deb baholangan maydon tomchilatib sug'orilmoqda. Bo'sh yerlarga tok ko'chatlari ekib berildi. Uzum hosiliga kirkuncha poliz ekinlari yetishtirishga sharoit ham qilindi. Hozir tok oralariga tarvuz ekilgan. Bu yangilikdan xabar topgan migrantlarimiz ortiga qaytib, shu yerda doimiy ish topmoqda.



## AHOLINING ISHONCHI MUHIM

## EHTIYOJMANDGA UY QURILMOQDA



**Sardor QURBONOV,**  
Beshariq tumanidagi  
"Dala-Hamid Olimjon" mahallasi  
yoshtar yetakchisi:



**Elmurodjon ABDURAHIMOV,**  
Qo'shetea tumanidagi  
"Yo'ldoshobod" mahallasi  
yoshtar yetakchisi:

Mahallamizda bir yosh ayloning 4 nafar farzandi bor. U shariy nikoh bilan oila qurgani bois farzandlariga tug'ilganlik haqida guvohnoma ololmagan. Yolgiz ona mahalladann yordam so'rash chiqdi. Lekin biz un "Yoshtar daftari"ga kiritish tartiblariga to'g'ri kelmagani uchun ro'yxtatga qo'sha olmadik. Ishchi guruh d'zolariga meni qiynatotgan shu masalada murojati qildim. Ular menga, avvalo, xalq mafna uchun ishlashim kerakligini aytilib, hokimiyatga murojaat qilishimni va bu oliga yordam berishimni aytilishi. Barcha hujjatlarini qonuniy to'g'rilab beringlar, aholining ishonchi biz uchun muhim, bu ishonchni yo'qotmanglar, deb maslahat berdi. Kerak bo'lsa, guvohnomalar olishiga ham ko'maklashyapmiz.

Xatlov qilib yurgan paytima da mahallamizdag'i bir oilaning uy-joyga muhtoj ekanini, yashab kelayotgan uylari yaroqsiz holga kelib qolganini aniqlagandan. Ko'cha sardorlari bilan kelishib, shu xonadonni hashar yo'lli bilan qaytadan qurib berishga maslahat qildik. Hasharni boshlaganimizdan keyin mahallamizda bir qancha homiyalar ham paydo bo'lib, bizning egzu ishimizga o'z hissalarini qoshmoqda. Hozirgi kunda uch xonali uyning pojdevori qurib bitkazildi. Ishchi guruh d'zolari mazkur xonadonga tashrif buyurib, qurilishga oid qo'shimcha tavsiyalar berdi.

Iqbol PARDAYEVA

## MAKTABDA YOSH JURNALISTLAR TO'GARAGI OCHILADI

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Bosma OAV va noshirlik ishi fakultetining Harbiy jurnalistika yo'nalishi o'qituvchi va talabalari Yakkasaroy tumanidagi 91-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'l'm maktabida mehmon bo'ldi.

Davra suhabatida Harbiy va sport jurnalistikasi kafedrasini mudiri, katta o'qituvchi Aljon Safarov o'quvchilarga universitetdagi o'qujarayonlari, talabalar uchun yaratilgan sharoitlar haqida so'zlab berdi. Talabalar abituriyentlik davridagi qiyinchiliklar, o'qishga kirgandan keyingi quronchilar bilan o'rtoqlashdi. Maktabda ham jurnalistiklar uchun to'garak-maktab ochish taklifi bildirildi. Sport sharhlovchisi Davron Fayziyev sharh jurnalistikasi haqida o'quvchilarga ma'lumot berdi.

O'quvchilar o'zlarining qiziqtiqgan savollariga javoblar oldi. Faol o'quvchilarga sovg'alar topshirildi.

Mashhura NASRIDDINOVA

## DAFTARDAGI FUQAROLARGA SUBSIDIYA BERILADI

Prezidentimizning 2021-yil 3-fevraldag'i "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi ni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Yoshtar qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoniga asosan, ishsiz a'zolari bor oila larga, jumladan, "Temir daftari", "Ayollar daftari" va "Yoshtar daftari"ga kiritilgan fuqarolarga dehqonchilik bilan shug'ullanish imkoniyatlari kengaytirish uchun:

dehqonchilik bilan shug'ullanish uchun, shu jumladan, yangi o'zlashtirilgan, lalmi, foydalanimayotgan yer maydonlarida 0,1 gektardan 1 gektargacha yer ajratish;

- ajratilgan yer maydonlari sug'orish tizimi (artizan quduqlar, tomchilatib sug'orish tizimi va boshqalar) hamda elektr energiyasi bilan ta'minlash;

- berilgan yerlarni o'zlashtirish uchun (yer haydash, urug', ko'chat xarid qilish va boshqalar) subsidiya ajratish;

- tadbirdorlik va o'zini o'zi band qilish faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan ishsiz, shu jumladan, "Temir daftari", "Ayollar daftari" va "Yoshtar daftari"ga kiritilgan fuqarolarga faoliyatini boshlashda kerak bo'lgan asbob-uskuna, mehnat qurollarini xarid qilish uchun 7 million so'mgach'a subsidiyalar ajratish belgilangan.

# YOSH KIMYOYOGARLAR SAMARQANDDA

G'olib HASANOV,  
O'za muxbiri



**P**resident ta'lim muassasalarini agentligi tomonidan tashkil etilayotgan 56-Xalqaro Mendeleyev kimyo olimpiyadasi ishtirokchilari Samarqanda bo'lib, yurtimiz tarixi, xalqimizning boy madaniy meroysi bilan tanishdi.

- Xalqaro Mendeleyev kimyo olimpiyadasi yurtimizda uchinchi bor o'tkazilmoqda, - **deydi O'zbekiston temra jamoasi rahbari Ortiboy Eshonqulov.** - Bu galgi olimpiyadada yigirmaga yaqin davlatdan 100 nafar atrofida o'quvchilar o'z bilimlarini sinab kormoqda. Avstriya, BAA, Isroil, Turkiya, Suriya davlatlarining o'quvchilari ilk bor ishtirok etmoqda. Shu kungacha jamoamiz a'zolari mazkur olimpiyadaning 8 ta oltin, 35 ta kumush, 41 ta bronza medallini qo'lg'a kiritgan. Joriy yil ham 12 nafar o'quvchimiz yurtimiz sharafini himoya qilmoqda.

Ishtirokchilar dastlab Amir Temur maqbarasida bo'lib, temuriylar davri tarixi, o'sha davr ilm-fani, madaniy aloqalar haqidagi muhim ma'lumotlarga ega bo'lishi.

- O'zbekistonda uchinchi marta o'tkazilayotgan Xalqaro Mendeleyev olimpiyadasida ham ishtirok etish nasib etdi, - **deydi olimpiada hakami, qozog'istonlik Vladimir Shvarsman.** - Yurtingizga bir kelgan kishi yana qayta kelish

orzu bilan yashaydi. Men har gal O'zbekistonga kelganimda ochiq chehra insonlarini ko'rib o'zgacha kuch, ruhiy ozuqa olaman. Ayniqsa, Samarqandga kelganimda o'zimni ruhan tetik his etaman. Buyuk insonlarga beshik bo'lgan bu zamin har tomonlama insonni o'ziga tortadi. Shu bois yosh kimyo yarlar olimpiada doirasida Samarqand bilan tanishтирilmoxda.

Tashrif davomida ishtirokchilar Registon maydoni, Ulug'bek rasadxonasi, Xo'ja Doniyor maqbarasi hamda Shohi Zinda majmuvalarida bo'ldi.

- O'zbekistonda o'tayotgan xalqaro olimpiyadada qatnashayotganidan xursandman, - **deydi isrooilik ishtirokchi Tall Sason.** - Olimpiyadada berilgan vazifalar juda qiyin, ammo biz maroq bilan bajaryapmiz Tashkiliy ishlar juda puxta, mazmuni yushtirilgan. Bi faqatgina bahslashayotganimiz yo'q, madaniy tadbirdirlarda qatnashib, tengdoshlarimiz bilan tanishib, do'stlashyapmiz ham Qolaversa, O'zbekiston bilan tanishyapmiz Dastlab Toshkentning diqqatga sazovor joylarida bo'ldik. Bugun dunyoga mashhur Samarqanddamiz. Tarixiy obidalar, go'zel tabiat o'ziga xos taassurot qoldirmoqda.

Xalqaro 56-Mendeleyev olimpiyadasi 18-maygacha davom etadi.

177 IM KONIYAT



Imtiyozli taqdim etish tartibi va mudatlar:

Imtiyozli toifalarga mansub shaxslar imtidozdan foydalanish yuzasidan tuman va shahar Aholi bandligiga ko'maklashish markazlari yoki hududiy sektorlar, fuqarolarning o'zini boshqarish organlariga murojaat qilishlari mumkin.

Murojaatga talabgorning "Temir daftari", "Ayollar daftari" va "Yoshtar daftari"ga kiritilganligini aniqlashtiruvchi shaxsiga oid ma'lumotlar yoki boshqa tasdiq ilova qilinishi lozim. Mazkur imtiyozlardan foydalanish uchun nomzodlarning yoshi chegaralanmagan.

# KREDIT-MODUL TIZIMI:

Mashhura  
NASRIDDINOVA

QULAYLIK, KAMCHILIK VA USTUN JIHATLARI

O'zbekiston oly ta'lim muassasalarida "Kredit-modul tizimi joriy qilingadi", degan xabaridan ko'pchilik xursand bo'lgan edi. Chunki kredit-modul tizimida ta'lim sifati o'sadi, talabalar o'qituvchi va fanni erkin tanlay oladi. Joriy qilinganiga ikki yil bo'lgan bu tizim O'zbekistonda to'liq ishlayaptimi?

## KREDIT-MODUL O'ZI NIMA?

Xalqaro ta'lim tizimida qo'llanadigan akademik kredit tizimi bakalavr, magistr va PhD mutaxassislarining o'zlashtirish darajasi ni hisoblaydi. Tizimning asosiy maqsadi talabaga boshqa davlatdagi oly dargohda ham o'qishni davom ettirish imkonini berish. Ammo bu imkoniyatdan o'zbekistonlik talabalar bexabar bo'sha kerak.

Kredit tizimining bir necha turli bor. Masalan, Yevropa davlatlarida ECTS (European Credit Transfer and Assumulation System), Amerikada SCH (Semester credit hours) va Buyul Britaniyada CATS (Credit Accumulation and Transfer Scheme). Kredit modul tizimi har xil bo'sha ham, ulardagagi kreditlar konvertatsiya qilinganda bir-biriga mos keladi. Ya'nin SCHda ta'lim olayotgan talaba, ECTSda o'qitilayotgan universitetda ham o'qishi mumkin bo'ladi.

## O'ZBEKİSTONDAGI TİZİM QAYSI?

Dunyo bo'ylab eng keng tarqal-gani ECTS bo'lib, O'zbekistonda ham 2020-yildan shu tizimga o'tish boshlandi. Uning ham boshqa kreditlar kabi qulaylik jihatlari bisyor.

### ECTS

ECTS - Yevropa mamlakatlari bo'ylab talabalar almashinuvvi va erkin ta'lim olishiga imkon beradigan tizim. ECST 1989-yilda Yevropada 145 ta oly o'quv yurti

hamkorligida qabul qilingan. Bunda bakalavr talabasi bir o'quv yili davomida 60, bitta semestr uchun 30 kredit yig'ishi kerak bo'ladi. Bir kredit 25-30 soat shug'ullanish natijasida yig'iladi. Kreditlar dars-dagi faoliyk, testlar, loyiha va tadqiqat ishlari, og'zaki yoki yozma imtihon baholari kabilarga asosanadi. ECTS beradigan afzalliklaridan yana biri shu tizimda o'qigan talabaning Yevropada ish topishi osonlashadi.

## NEGA KREDIT-MODUL TIZIMIGA O'TILDI?

Vazirlar mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi "Oly ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni ni tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, 2020-2021-o'quv yillardan respublika oly ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni bosqimcha-bosqich kredit modul tizimiga o'tkaziladigan bo'ldi. 2021-2022-o'quv yillardan yurtimizdagi deyarli barcha oly o'quv yurtlari kredit-modulga o'tdi. O'zbekistonda joriy qilingan kredit tizimi ham Yevropaniki bilan deyarli bir xil. Ammo ba'zi oly ta'lim muassasalarida ECTSning hamma talabari ham bajarilmayapti. ECTS bo'yicha talaba professor o'qituvchilarini erkin tanlashi mumkin. Bunda uning qo'liga fanlar va o'qituvchilar ro'yxati beriladi. Professor o'qituvchilarini tanlashda talabalariga tyutorlar yordam beradi.

## DAVOMAT TUSHUNCHASI QANDAY?

Kredit tizimida davomat hisobga olimmaydi. Minimal holatda talabaning darsga qatnashishi uchun 15 foiz kredit beriladi. Agar talaba o'sha darsni keyinchalik ozi yetkazib olishga ishonsa, mal'um darslarga qatnashmay, mustaqil o'zlashtirib olishi mumkin. Vazirlar Mahkamasi qarorida talabalar-

ning o'quv mashg'ulotlarida qatnashishi haqida belgilangan tartib bor. Bir fanga ajratilgan auditoriya soatining 25 foizi va undan ortiq soatni sababsiz qoldirgan talaba ushbu fandan chetlashtirilib, yakuniy nazoratga kiritilmaydi va bu fan bo'yicha tegishli kreditlar ni o'zlashtirmagan hisoblanadi. Yakuniy nazoratni topshira olmagan yoki qoniqarsiz baho olgan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.


## BIZDA HAM FANNI TANLASH MUMKINMI?

Talaba kelgusi kasbi, rejalashtirgan ish joyi, faoliyat turiga zarur bilim va ko'nikmalarni hisobga olib, shu fanlarni tanlaydi. Bundan tashqari, talaba unga fanlarni tanlash imkoniyati berilishini talab qilishga haqli. Ammo tanlagan kreditlarini yopolmasa, to'lov asosida qayta o'qiydi.

\*\*\*

- Universitetga kirganimda o'qish boshlanishidan oldin qo'limga fanlar va ustozlar ro'yxati berilgan, - deydi Istanbul universiteti adabiyot fakulteti san'atshunoslik yo'nalishi talabasi Muhabbat Yusupova. - Misol uchun, bitta fanga ABC variantida uchta o'qituvchi beriladi. Ularning darajasi ham bir xil, faqat dars o'tish vaqtini har xil bo'ladi. Men o'zimga mos yo'nalishni va qulay vaqtidagi darsni tanlayman. Keyin ustozlar o'qish uchun adabiyotlar beradi. Kutubxonamiz ham qaysidir kitob kerakligini aytak, topib beradi. Haftada uch kun dars bo'ladi. Lekin semestr oxiriga har bir talaba kreditlarni yopishi kerak. Bunda talaba o'zi ko'proq harakat qiladi.

O'zbekistonda kredit-modul tizimi joriy etilgan bo'sa-da, ko'pgina ta'lim muassasalarining hamon eschicha shaklida ishlayotganiga guvoh bo'yapmiz. Albatta, hech narsaga o'z-o'zidan yoki qiyinchiliklarsiz erishib bo'lmaydi. Biroq ta'lim sifati har narsadan ustundir.



## "BIRGA O'QIYMIZ!" LOYIHASI G'OLIBI ANIQLANDI

Gazetamizning 23-sonida e'on qilingan "Birga o'qiyimiz!" kitobxonlik loyihasining 2-soni uchun yo'llangan javoblar orasi dan g'olibini aniqladi!

**S**amarqand davlat universiteti filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi Adiba Abdulla-yeva "Kecha va kunduz" romanini yuzasidan tuzilgan savollarga biringchilardan bo'llib to'g'ri javob yo'llagani uchun loyihamizning 2-sonida g'olib deb topildi.

Adibani g'oliblik bilan tabriklaymiz. Shu bilan birga, Sarvinor Nur-murodova, Behruz Shukurov, Fotima Bahromqulova, Go'zal Sirojova, Mohigul Turdialiyeva, Aim Farmanova, Husnidabon Hazratqulova, Alisa Samandar Yusupovga pochta manzillaridan jo'hatilgan javoblari va faol ishtiroti uchun minnatdorchilik bildiramiz!

Loyihaning navbatdagi sonlida ham faoliyk ko'rsatgan ishtirotchilarimizni yanada qiziqarli ma'lumatlar va tahririyat tomonidan maxsus sovg'alar kutib turibdi.

## "ZAKOVAT" JAZONI IJRO ETISH MUASSASASIDA



Yoshlar ishlardan agentligi Namangan viloyat boshqarmasi Ichki ishlardan vazirligi bilan hamkorlikda Pop tumani joylashgan 6-sonli Jazoni ijro etish muassasasida "Zakovat" intellektual turnirini o'tkazdi.

Turnirda muassasada jazoni o'tayotgan yoshlardan tashkil topgan 4 ta jamoa o'zaro bellashdi. Yakuniy natijalarga ko'ra, 1-o'rinni "Adolat" jamoasi qolga kiritdi, 2-o'rinni "Ozodlik" jamoasi egallagan bo'sa, 3-o'rinni "Samo" jamoasiaga nasib etdi.

Iqbol PARDAYEVA



# SO'Z ERKINLIGI NIMA?

YOXUD "QO'Y KO'RMAN  
QO'Y KO'RSA, QUVA-QUVA  
O'LDIRARMISH"

O'qidimki, bir yig'inda bironning og'zi hech yopilmabdi. Oxirida esa odamlarga qarab: Kechirasizlar, bugun rosa ko'p gapirob yubordim, - desa, biri unga: sen hali hech gap aytmading, - degan ekan.

So'z erkinligi haqiqatni ko'ra bishida muhim vositadir. Ammo bundan qay tarzda foydalana olyapmiz? So'z erkinligini yaxshi anglay olyapmizmi? Ana shu og'riqli nuqta.

Ayni damda axborot almashinuv shiddatli tezkor. Ko'plab obunachilariga, o'quvchilariga ega manbalar ortib bormoqda. Ko'pchilik o'shalarning nuqtayi nazardan axborotlarni qabul qilmoqda.

Xo'sh, olayotgan ma'lumotlarimiz qanchalik haqqoniy, qanchalik ishonchli! Agar ishonchli bo'lsa, unda o'sha manbada bildirilgan fikr qanchalik teran va xolis! Fikr-muhohazalar bir shaxsnikimi, ko'pchilik-nikimi?! Ko'pchilikka tegishli bo'lsa, ular kimlar?! Avvalambor, ko'p sonli auditoriyaga ega bo'lganlar har bir nutqiga e'tiborli bo'lishi kerak.

Kuzatuvchilar, obunachilar ko'pligi katta mas'uliyat beradi. Ammo ba'zi blogerlarning "siz-larga nima, istagananimni" gapirom, xohlamaniganlar kanalimdan chiqib ketishi mumkin, degan yoki shunga o'xshash mazmundagi gaplariga duch kelamiz. Bu ne demak?

Muqoyosa qiyaylik, bir xonada bir qancha kishilar bor, shunda ularning biri biror hid taratuvchi vosita ishlamoqchi bo'lsa, xonadoshlarining ham borilagini unutmaysligi kerak. Boshqalariga salbiy ta'sir qiladigan vositan ishelflatib, sizlarga nima, o'zimni bo'lgach, istagan vaqtin foydalananaman-da, deyish qanchalar to'g'ri bo'ladil?

Omma oldida so'z aytilyaptimi, demak, u xolis bo'lsin, o'zgalarga manfaat bersin!

Nega turli shaxslarning ijtimoiy tarmoqlardagi kanallarida turli bema'nii fikrlar, savyasiz tanqidlar ko'payib qoldi! Chunki ularning nutqi odamlarga bilvosita yetadi.



Samariddin YOLDOSHEV,  
OZOKUJ talabasi

Ijtimoiy reklama

## O'ZBEK TILINI O'RGATUVCHI DASTUR YARATILADI

"O'zbekiston yoshlar forumi - 2021"da o'zbek tilini rivojlantirish bo'yicha o'z taklifim bilan qatnashgandim. Loyiham mazmuni zamoniaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining integratsiyalashuvini ta'minlash sohasida xorijiliklar uchun o'zbek tilini o'rgatuvchi dastur yaratishga qaratilgan.

Asosiy maqsadi o'zbek tilining xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, o'zbek tilini jahon tillari miqyosida keng targ'ib qilish hamda xorijda chet el fuqarolari uchun o'zbek tilini o'rgatuvchi o'quv markazlari tashkil etish, o'zbek tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha xalqaro serifikatini joriy etish, xorijda o'zbek tilini o'rganuvchilarning O'zbekistonga tashkifini tashkil qilish.

Taklifim O'zbekiston Bosh vaziri o'rinbosari, investitsiyalar va tashqi savdo vaziri tomonidan 2022-yil 18-yanvardagi 6-ton bayonida ham tasdiqlandi. Hozirda loyiha to'liq ishlab chiqilmoqda. Mazkur loyiha bo'yicha takliflarigiz bo'lsa, +99899 729 09 63 telefon raqamiga murojaat qiling.

**O'g'iloy SAITQULOVA,**  
Jizzax viloyati Yuriali teknikumi  
o'quvchisi

## TILIMIZNI BOYITYAPMIZMI YOKI...?

**H**ar bir tilning lug'at boyligi, ya'ni so'zlar mavjud. So'z bevosita yoki bilvosita borilqni ifodalaydi, jamiyatdagi o'zgarishlarni, xalqning moddiy hayoti va ma'naviy olamini aks ettiradi. Demak, tilimiz bizning qadriyatimiz, milliyligimizdir. Ammo hozirgi kunda tilimizga turli - rus, inglez, fors-tojik, arab tilidan so'zlar kirib kelib, ular hech qanday o'zgarishlarsiz, to'g'ridan-to'g'ri qabul qilinyapti. Bu qanchalik to'g'ri!

Nega aynan bu mavzuni tadqiq qilish kerak? Chunki o'zbek tili har tomonlarma, lug'at jihatidan ham boy til. Nazarimda, boshqa tillar dan kirib kelayotgan so'zlar darrov muomalaga kiritmasdan, uni taftish qilib, aynan shu so'zning o'zbek tilidagi vari anti topilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Xo'sh, muammo nimada? Muammo shundaki, ularning kirib kelishi o'zbek tilidagi so'zlarining kamayishi ketishiga olib keladi. Eng achinarlisi, o'zbek tili lug'ati chet so'zlar bilan "boyiydi", ya'ni o'zbek tili o'zidan yo'qola boshlaydi.

Ma'lumki, o'zbek tilida ot so'z turkumida eng faol so'z yasovchi -chi qo'shimchasi hisoblanadi. Uning ingliz tilidagi muqobili -er shakli bo'lib, bu qolip asosida yasalgan broker, vaucher, snayper, trener, taymer, shuningdek, investor, monitor kabi yuzga yaqin leksemalar tilimizga o'zgarishsiz o'zlashgan. Masalan, investor so'zining o'zbekcha muqobili sarmoyador; aysberg - muz tog'; basket - o'tirish, katta ziyofat; bankrot - singan korxona yoki shaxs; bantik - tasma, tugun kabilarning o'zbekcha muqobili o'miga o'zlashmasi ishlatalib kelinmoqda.

Yana misol tariqasida shuni aytib o'tish joizki, o'zimiz sevib iste'mol qiladigan smorodina, malina, qulupnay so'zlar ham o'zlashma bo'lib, rus tilidan, na'matak so'zi esa arab tilidan kirib kelgan. Ularning o'zbekcha

muqobil variantlari (smorodina - qarag'at, malina - xo'jag'at, qulupnay - yertut, na'matak - itburun tarzida) o'zbek tilida mavjud. Ularning o'zbekcha nomlanishi tilimizda qo'llanmasligi achinarli holatdir.

Maqsad chetdan kirib kelayotgan so'zlarining muqobil variantlarini ishlab chiqish, tatbiq etish va muomalaga kiritishdir. Masalan, Turkiyada chetdan so'z kirib keldimi, uning muqobil variantini topishga harakat qilinlar ekan. Hattoki u shewada bo'lsa ham qo'llanar ekan. Turk tilida mashina so'zi arava tarzida ishlilar ekan yoki o'zbek tilida arab va fors tillarining qorishmasidan o'zlashgan shaxs guvohnomasi, ya'ni ID-karti turklarda "kimlik kart" tarzida ifodalanar ekan. Bu esa ularning tiliga, millatiga bo'lgan muhabbatining yorqin isbotidir.

Xulosa qilar ekanmiz, har bir til unda so'zlovchi xalqning dunyoda borilagini ifodalab keladi. Tilimizga bo'yundirilib emas, balki hokim bo'lib kirib kelgan va kelayotgan so'zlar vositasida lug'at boyishi mumkin. Ammo til o'z-o'zidan yo'q bo'lib boraveradi. Agar o'zbek tilida fikrlashga keng yo'l ochilmas ekan, qulogqa yoqmaydigan, tilimizga mantiqsiz va g'aliz tarjmalar orqali yet so'zlar urchigandan urchib ketaveradi.

Odamlar o'zbekcha ko'rinishimizni qabul qilmay, chet tilidagi so'zlarini aytishi ona tilimiz yo'liga g'ov bo'laveradi. O'zbek tilshunosligini tadqiq etar ekanmiz, tilimizning naqadar boy va rang-barang ekanini ko'ramiz.

Shunday ekan, o'z tilimizni saqlab qolish, uni uzoq yillarda xalqimiz uchun xizmat qilishini ta'minlash, xalqaro hamjamiatga tilimizning imkoniyatlarini ko'satish, xalqaro miqyosga olib chiqish uchun biz yoshlar bel bog'lamog'imiz shart va zarur.

**Mehrinozo JO'RAYEVA,**

Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi



O'ZBEKISTON  
YOSH FERMERLARI  
KENGASHI

## O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING YORQIN KELAJAGINI BIRGALIKDA YARATAMIZ!

O'zbekiston Yosh fermerlari kengashi nodavlat notijorat tashkiloti o'z-oldiga fermerlik faoliyatini keng targ'ib qilish va rivojlantirish, yoshlari, ayniqsa, uyushimagan yoshlarni fermerlik harakatiga keng jalg etish, yosh fermerlarni ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklariga aylantirishda ko'maklashish, shuningdek, yosh fermerlar faoliyatida duch kelinayotgan muammolar va masalalarini birgalikda hal etish, xorijiy ilg'or tajribalarni o'rorganib, yosh fermerlar faoliyatiga joriy qilişda amaliy yordamlar ko'rsatishni maqsad qilgan.

### Yangi loyihalar

Biz yosh fermerlar va fermerlikka qiziqqan yoshlarni qishloq xo'jaligida faoliyatini boshlash va muvaffaqiyatli davom ettirishi yo'lida sohada nomaqbul holatni o'zgartirishga, tarmoqlarni kuchaytirishga, biznes xizmatlar ko'rsatishga va yangiliklar yaratishga qaratilgan loyihalar ishtab chiqamiz va amalga oshiramiz.

### Yangi qahramonlar

Biz agrar sohada muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotgan yosh agrotadbirkorlarning va mutaxassislarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaymiz, ularning ovozlarini tinglanishiga va g'oyalarining jontanishiga ko'maklashamiz.

### Yangi imkoniyatlar

Biz mamlakatdagi barcha yoshlarga bepul konsultatsiya ko'rsatamiz. Qolaversa, kengashga a'zo bo'lish, tajriba ortifirish va uning xizmatlaridan foydalaniш mutlaqo bepuldir. Biz O'zbekiston Yosh fermerlari kengashining faoliyatini qo'llab-quvvatlagan barcha ke'ngillii yoshlarni hamkorlikka chorlab qolamiz.



9 4 4 4 2 0 7 0 7



/YOSHLFERMER

## YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:  
Hamza  
ABDULLAYEV

**Muassis:**  
O'zbekiston yoshlari ittifoqi  
Markaziy Kengashi

**Bosh hamkor:**  
O'zbekiston Respublikasi  
Yoshlari Ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:  
**Muhammadshukur  
MUHAMMADJONOV**

Musahihilar:  
**Rashid XO'JAMOV,  
Qirmizoy HAKIMOVA**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va omrnayli kommunikatsiyalar agentligiga 2020-yil if-dekabrda № 0242 roqami bilan qoya ta'xatdan o'ta'an. Gazeta materialari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefon: (7) 233-22-16. (7) 236-79-95.

"Shara" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosma xonasida, A-3 formatida chop ettildi. Hajmi – 2 bosma taboq. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indekslar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxdan Buyurtma G-555, Adadi – 10736. Bosishga topshirish vaqtı – 21.00. Topshirildi – 20.00.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skener qiling.



1 2 3 4 5 6